

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI, MAKTAB VA OILA BILAN HAMKORLIGINI TO'G'RI YO'LGA QO'YISH IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Rahimova Mohinora Xoshimjanovna

Andijon davlat pedagogika instituti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasи o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7191393>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlari maktab va oila bilan hamkorligini to’g’ri yo’lga qo’yish va milliy qadriyatlar, milliy madaniyat, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo`yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab tomonidan amalga oshirilishi va hamkorlik ish shakllari haqidagi fikrlar yoritilgan .

Kalit so’zlar: pedagogik-psixologik bilimlar, bolalarning ijtimoiy-lashuvi, yaxlit tarbiya tizimi, hamkorli ishlari.

ПРАВИЛЬНОЕ НАЛАЖИВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ ДОШКОЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ, ШКОЛОЙ И СЕМЬЕЙ В КАЧЕСТВЕ СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В данной статье рассматривается комплексная система воспитания для правильного налаживания сотрудничества дошкольных образовательных организаций со школой и семьей и совершенствования педагогических знаний о национальных ценностях, национальной культуре, воспитании и развитии детей, как семейных, так и дошкольных. Особое внимание уделяется сотрудничеству образовательных организаций и школ

Ключевые слова: педагогико-психологические знания, социализация детей, целостная система воспитания, совместная работа.

CORRECT ESTABLISHMENT OF COOPERATION BETWEEN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS, SCHOOL AND FAMILY AS A SOCIAL PROBLEM

Abstract. This article discusses a comprehensive system of education for the proper establishment of cooperation between preschool educational organizations with school and family and the improvement of pedagogical knowledge about national values, national culture, education and development of children, both family and preschool. Particular attention is paid to the cooperation of educational organizations and schools

Keywords: pedagogical and psychological knowledge, socialization of children, integral system of education, joint work.

KIRISH

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri Maktabgacha ta’lim va maktab sohasini yanada rivojlantirish, oila va Maktabgacha ta’lim tashkilotlar hamkorligini to’g’ri yo’lga qo’yish, bola tarbiyasida ota-onas mas’uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Milliy qadriyatlar, milliy madaniyat, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo`yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab tomonidan amalga oshiriladi. Oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarni ijtimoiylashtirishning ikkita muhim institutidir. So’ngi yillarda pedagog tarbiyachilar bilim salohiyatini yanada oshirish borasida ko’plab ishlari amalga oshirilmoqda. Ammo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hali yechimini kutayotgan kamchiliklar

talaygina. Xususan, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarida maktab ta’limiga tayyorlash masalalari, tarbiyachilarining kasbiy malakalarining yetishmaslik holatlari uchrab turibdi. Bunday salbiy xolatlarni bartaraf etish MTT va tarbiyachilar hamkorligini yahshilash, alohida o’quv kurslarida tarbiyachilar salohiyatini oshirish, tarbiyachilararning oilalar bilan muntazam hamkorligini yo’lga qo’yish, ota-onalarni ragbatlantirib borish, yosh ota-onalarga metodik tavsiyalar berib borish, ota-onalar ishtirokidagimashg’ulotlar, seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari olib borish maqsadga muofiq.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bola tarbiyasida ikki yo`nalish biri ikkinchisining o`rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to`ldiradi. Sog`lom muhitda bola sog`lom fikrlaydi va o`sib ulg`aydi. Sog`lom muhitni yaratish oilada oila a`zolarining maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilararning bilimdonligiga, zukkoligiga bog`liqdir. Ko`p xollarda maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiyotida notejislikni ko`rish mumkin. Masalan: bir yoshli bolalarning ba`zilari 10 taga yaqin so`zni ayt补齐 oladi. Mustaqil yura oladi. Ayni shu yoshdagi ayrim bolalarning esa mustaqil yura olmasligining, zo`rg`a 1-2 ta so`zni ayt补齐 olishining guvoxi bo`lamiz. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotiga boruvchi bolalar jismonan baquvvat, sog`lom, fikri teran, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to`g`risida oddiy mushohada qiladigan. “Yazshi” bilan “Yomon”ni, “Gunoh” bilan “Savob”ni ajrata oladigan bo`ladi. Yana ham aniqrogi maktab dasturini osonroq o’zlashtirish imkoniga ega bo`ladilar. Aynan shu yoshdagi ba`zi bolalarda esa bunga teskari bo`lgan xususiyatlarni uchratish mumkin. Bunday notejislikka asosiy sabab kattalarning e`tiborsizligi yoki bola tarbiyasi bo`yicha ota-onalarning tajribalarning yetishmasligidir.

Bolani jismonan ma`nan, ruhan yetuk inson qilib tarbiyalashda oila va MTT hamkorligi muhim ahamiyati kasb etadi. Shuning uchun xar bir oiladagi pedagogik bilim va madaniyatni takomillashtirish zarur. Bog`cha murabbiylari tarbiya borasida ota-onalarga ham ta`sir o`tkaza olishlari, oila pedagogikasining nozik jihatlarini chuqr bilishlari kerak. Har bir guruh xonalarida ota-onalar uchun burchak tashkil qilinib, doimo har bir oyda guruh bolalari rivojlanishidagi o`zgarishlar aniq tahlil qilib ko`rsatilishi va shu asosda ota-onalar uchun tegishli maslahatlar, tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir. Ayrim bolalarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o`tkazib, tegishli yo`l-y`oriqlar beriladi. Masalan: nutqida, jismoniy o`sishida, xulqida kamchiliqi bo`lgan bolalarni faqat tarbiyachining harakati bilan bartaraf qilish qiyin. Bolaning oiladagi faoliyati ham, bog`chadagi faoliyati ham yagona maqsadga yo`naltirilgan bo`lishi kerak.

Bolalar bog`chalarida olib boriladigan hamkorlik ishlarida faqat ma’ruzalar bilan cheklanib qolmay, balki anketa savollariga javob olish, ishchanlik o`yinlar olib borish kabi noan’anaviy usullardan foydalanish ota-onalarda bola tarbiyasi bo`yicha pedagogik bilimlarga ega bo`lish ehtiyojini paydo qiladi.

Samarali tashkil etilgan ta’lim tarbiya jarayonini bevosita umumta’lim maktablari davom ettirar ekan, bunda mактабда bolalarda o’qish faoliyatiga ko’nikma xosil bo’lishida boshlang’ich sinf o’qituvchilarining pedagogik mahoratlari juda muhimdir. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining oila hamkorlik ish shakllariga pedagogik ma’ruza, ilmiy, metodik kengash, «Savollariningizga javob beramiz» kabilarni misol qilsak bo`ladi. Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi ‘sihologik-pedagogik tadqiqotlar ta’limotlarini e’tiborga olishlari ham muhimdir. Ularga muvofiq o’sib kelayotgan kishi shaxsini

shakllantirishga oilaning qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'lqinsimon o'zgaradi.Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan ishslashda buni hisobga olmay iloji yo'q

TADQIQOT NATIJALARI

So'ngi yillarda pedagog va tarbiyachilar bilim salohiyatini yanada oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoxqda. Ammo maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hali yechimini kutayotgan kamchiliklar talaygina. Bola tarbiyasida yetarlicha tajribaga ega oilalar bilan hamkorlik o'rnatish pedagog va tarbiyachilarga birmuncha yengillik tug'diradi.Bu ko'pincha maktabda va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida muntazam faol ishtirok etadigan oilalar,masalan, bayram tardbirlarida,guruhlarda ko'ngilli ravishda qatnashadigan materiallarni taqdim etish va yig'ilish va konferensiyalarda ishtirok etadigan ota-onalardir.

Ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo'lgan oilalar yoki tarbiyachilar kutganidek har xil tadbirlarda va biroz ma'suliyati sostroq oilalar bilan hamkorlik o'rnatish qiyinroq bo'lishi mumkin.

Hamkorlik boshqa tomonni hurmat qilishni,ularning ehtiyojlariga javob berishni va o'z munosabatini bildirishni talab etadi.Bunday munosabatni boshlash uchun pedagog va tarbiyachilar o'zları tarbiyalaydigan bolalarning oilasi to'g'risida ma'lumotlarni bilish kerak.Bolaning birinchi murabbiyi sifatida oilaning asosiy rolini tan olish va qadrlash juda muhimdir.Ota-onalar va boshqa yaqin oila a'zolari kichik yoshdag'i bolaning hayotodagi eng muhim insonlar bo'lib,ularning birinchi va eng uzoq murabbiylari bo'ladi. Xususan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarida maktab ta'limiga tayyorlash masalalari,tarbiyachilarning kasbiy malakalarining yetishmaslik holatlari uchrab turibdi.Bunday salbiy xolatlarni bartaraf etish MTT va tarbiyachilar hamkorligini yahshilash ,alohipa o'quv kurslarida tarbiyachilar salohiyatini oshirish, tarbiyachilarning oilalar bilan muntazam hamkorligini yo'lga qo'yish ,ota-onalarni ragbatlantirib borish ,yosh ota-onalarga metodik tavsiyalar berib borish, ota-onalar ishtirokidagi mashg'ulotlar, seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari olib borish maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA

Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta'qiqlashlar sistemasi, ijtimoiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim to'g'ri xatti-harakatini mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir, harakatning maktab bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchiligidadir. Ayrim ota-onalarning bolalar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faolligini susaytirib yuborishlari, ota-onalardan uzoqlashuviga, maktabga qiziqishi pasayishiga asos bo'ladi. Bola katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb yo'lash o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak Maktabgacha ta'lim tashkilotlari,maktab va oila hamkoligida pedagog vatarbiyachi faoliyatiga innovatsion yondashuvni takomillashtirish,MTT larga bolalar qamrovini to'g'ri yo'lga qo'yish va mashg'ulotlar sifatini oshirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish ,maktablarda o'quvchilarni maktab hayotiga ijtimoiylashuvini yaxshilash va ularni bilim sifatini yaxshilashdan iborat.

REFERENCES

1. "O'zbekiston Respublikasining ilk va muktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma.
3. Muktabgacha tarbiya pedagogikasi. Bolalar bog'chasida tarbiyaning mazmuni (Ikki qismli. Birinchi qism. V.I.Loginova va P.G.Samorukova tahriri ostida.
4. www.pedagog.uz www.ziyonet.uz